



Ulug'bek Qosimov boshchiligidagi viloyat delegatsiyasi Yaponiyada




Dunyodagi rivojlangan davlatlardan biri bo'lgan Yaponiya bilan savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy hamkorlikni yo'lga qo'yish muhim ahamiyat kasb etadi. Qolaversa, Surxondaryo viloyatidagi ko'plab qadimiy buddaviylik manzilgohlari kunchiqar mamlakat aholisini hamisha o'ziga jalb qilib kelgan. Bu esa o'z navbatida, ushbu mamlakat aholisini vohamizga jalb qilish imkonini beradi.

Shu maqsadda bugun Surxondaryo viloyati hokimi Ulug'bek Qosimov boshchiligidagi delegatsiya Yaponiya davlatida bo'lib turibdi.



Tashrif avvalida viloyatimiz delegatsiyasining "Japan Conservation Engineers & Co., Ltd." kompaniyasi rahbariyati bilan muloqoti o'tkazildi.

Unda Surxondaryo viloyatida sho'rangan qishloq xo'jaligi yerlarini yuqori konsentratlangan fulvokislotadan foydalangan holda yaxshilash texnologiyasini qo'llash loyihasini amalga oshirish masalalari muhokama qilindi. 2022 yilda mazkur kompaniya bilan Sherobod tumanida entomolog-agronomlar ishtirokida 1 hektar kuchsiz (o'rta) sho'rangan paxta yer maydonida o'tkazilgan sinov ijobiy samara bergandi.



Muzokaralar yakunida "Japan Conservation Engineers & Co., Ltd." kompaniyasi bilan "Fujimin" preparatini mosh, paxta va g'alla yetishtirishda qo'llash bo'yicha hamkorlikni davom ettirish yuzasidan kelishuvga erishildi.

Viloyat delegatsiyasining Yaponiyaga tashrifi davom etmoqda.